



The Distinctive Aspects of the Poet's Artistry

Nafisa RUZIMOVA¹

Mamun University

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2025

Received in revised form

15 September 2025

Accepted 25 September 2025

Available online

15 October 2025

Keywords:

historical character,

tragedy,

image,

theme,

idea,

artistic depiction,

historical truth,

appearance,

impression.

ABSTRACT

This article explores Omon Matjon's mastery in creating historical characters. The author's tragedy "Najmiddin Kubro" and the poem "The Thirteenth Door" are analyzed. It is highlighted that Matjon drew upon legends and stories to more deeply reveal the ideas within his artistic works. The article emphasizes how universal issues are portrayed through the activities of historically real figures such as Najmiddin Kubro and Beruni in these works.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss8/S-pp251-256>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Shoir badiiyatining noyob qirralari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

tarixiy xarakter,

tragediya,

obraz,

mavzu,

g'oya,

badiiy tasvir,

tarixiy haqiqat,

qiyofa,

taassurot.

Ushbu maqolada Omon Matjonning tarixiy xarakter yaratish mahorati ochib berilgan. Ijodkorning "Najmiddin Kubro" tragediyasi va "O'n uchinchi eshik" she'ri tahlilga tortilgan. Badiiy asar g'oyasini chuqurroq ochib berish maqsadida afsona va rivoyatlarga murojaat qilgani yoritilgan. Asarlardagi Najmiddin Kubro, Beruniy kabi tarixan real shaxslar faoliyati orqali umumbashariy masalalar ko'rsatilganligiga e'tibor qaratilgan.

¹ Independent Researcher, Teacher, Mamun University.

Уникальные грани поэтического искусства

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

исторический характер,
трагедия,
образ,
тема,
идея,
художественное
изображение,
историческая правда,
облик,
впечатление.

В данной статье раскрывается мастерство Омона Матжона в создании исторических образов. Проанализированы его произведения — трагедия «Нажмиддин Кубро» и стихотворение «Ўн учинчи эшик». Отмечено, что автор обращается к легендам и преданиям, чтобы глубже раскрыть идею художественного произведения. Особое внимание уделено тому, как через деятельность исторически реальных личностей — таких как Наджмиддин Кубро и Беруни — в произведениях поднимаются общечеловеческие проблемы.

O'tgan asrning oxirgi chorasida adabiyot bo'stonida paydo bo'lgan iste'dodi yuksak ijodkor, xalq qalbida yorqin iz qoldirgan shoir Omon Matjon ijodining qon tomirini xalqparvarlik tashkil etadi. Adabiy jarayon, ijodkor qismati hech qanaqa qoliplarni tan olmaydi. Shoir she'riyatimiz rivojida yorqin iz qoldirgani, adabiyotimizga o'zgacha ruh, ayrica tarovat baxsh etgani adabiy-ilmiy jamoatchilik tomonidan allaqachon e'tirof etilgan. Ona yurt kechmishi, hozirgi kuni va kelajagi Omon Matjonning sevib, kuyib-yonib aytgan dil so'zlaridan tashkil topgan. Ijodkor tarjimayi holidan eslatib o'tilganidek, „..Bolalik mayli o'zi dunyoning turli informativ oqimlariga oshufta etadi. Esimda, qishlog'imizda chollar, xalfa kampirlar, ko'pincha, turkman shoirlari – Mulanafas, Maxtumquli she'rlarini juda ko'p o'qishardi. Bizning uyimizda ham bu shoirlar she'riyati katta qiziqish va mehr bilan o'qilardi. Yana shunday keksalar bor ediki, ular kechqurunlari yig'ilishib, ashulalar aytishardi. Ayollar esa kechalari moychiroq yorug'ida ko'rak chuvishib, ertaklar aytishardi, xalq qo'shiqlarini kuylashardi. Men, maktab yoshiga kirmagan bola, bu sehrli kuy, qo'shiq, ertaklarning barisini uxlamasdan, qiziqish bilan, qandaydir hayrat bilan tinglardim. Balki bolalikdagi mana shu qiziqish va hayrat mening qalbmida she'riyatga bo'lgan ulkan muhabbat hissining ilk kurtaklarini uyg'otgandir"[1]. Ushbu parchada berilgan shoir bolaligi bilan bog'liq hodisalar uni nafaqat she'riyatga oshufta qiladi, balki yosh ijodkor qalbida Vatanga muhabbat tuyg'ularini ham shakllantirgan. Omon Matjon tarjimai holi bilan bog'liq manbalarda berilishicha, esini taniganidanoq tabiat, go'zallik, she'riyat shaydosi bo'lib ulg'aygan, oilaviy muhitda navoiyxonlik ruhida tarbiyalangan, maktabda nozikta'b adabiyot o'qituvchilari uning she'riyatga mehrini yanada oshirgan. Uning she'rlarida erk tushunchasi hamisha Vatan, qalb, yurak, ona, muhabbat kabi odam bolasi uchun eng aziz, eng yuksak, nurli tuyg'ular bilan yondosh holda keladi.

O'z yerim deb kuygan, yongan xalq edim,

Imonimga chin inongan xalq edim.

Bilar edim yaratganning mehri bor,

Toleyimda buyuk davlat muhri bor![2]

Shoir she'rlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, insonning yaxshiligi, adolatsizlikka nafrati, ma'naviy go'zallik, ezgulikka sodiqlik, tabiatga oshuftalik, do'stlikka, sevgi-muhabbatga, umuman hayot go'zalliklariga sadoqatni tarannum qilganini ko'ramiz. Yana bir o'ziga xoslik shundaki, shoir Vatanni xalq taqdiridan alohida tasavvur qilmaydi, uning dardu hasratini, alamlariyu armonlarini yashirmaydi. "Shu zamin xalqimning tiragi erur, shu erk millatimning yuragi erur" kabi misralarida ijodkor tasavvurida Vatan – jonli xilqat,

bizning o'zimiz, o'zligimiz. Shu bois, shodligu quvonch, qayg'u, sitam kabi xislatlar unga ham xos.

Xalq ulkim, o'zining peshonasida
Yulduzlar borini sezsa, quvonsa!
Xalq ulkim, gururi bolsa ozida,
Asliga ishonsa, soxtadan tonsa.

Omon Matjon ijodida tasavvur orqali tiklangan yaqin va uzoq o'tmish voqealariga oid she'riy asarlari butun bir turkumni tashkil etadi. Ular orasida tarixiy asarlar alohida ajralib turadi. Omon Matjon tarix haqida fikr bildirar ekan jumladan shunday deydi: "Odamlarni kelajak emas, o'tmish donishmand qiladi, lekin donishmandlik kelajakka intilishning o'zginasidir"[3] Ulug'bek Hamdam ta'kidlaganidek, "Zamondosh inson biron jiddiy masala borasida fikrlarini jamlab olishda qiynalsa, tarixga nazar solsin ekan, chunki juda hammasi bo'lmasa-da, haqiqatga eltadigan asosiy belgilar o'tmishning sarg'aygan sahifalarida chang bosib yotarkan. Muhimi, biz tarixni to'g'ri o'qib, uqa bilsak, bas ekan". Shoir ijodida ham Boborahim Mashrab, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Najmiddin Kubro, Komil Xorazmiy, Amir Olimxon va yana bir qancha tarixiy shaxslar qalamga olingan she'rlarga duch kelamiz. Bu she'rlarda shoir millat dardi, qayg'usi, ajdodlar fojeasi haqida yozadi:

Bu nechuk manzildir, tog'lar soqchidir,
Na beshik — ko'k-yashil bayroq yopinchiq?!
Bu qandoq go'dakdir, allasi — bo'ron,
Yulduzlar — o'yinchoq, yashin — ovunchi?!
Kim u, bulutlarni yirtgan bir qarab,
Bu — Mashrab, Mashrab! [4]

Shoir she'riyati- bu ko'ngil she'riyati. Tabiiy tuyg'ular tasvirining sehrli qudrati bilan muallif o'quvchi qalbiga osongina kirib boradi.

Omon Matjon ijodi davomida buyuk qomusiy olimlarimiz va shoirlarimiz Al Beruniy, Al Xorazmiy, Ahmad Yassaviy, Pahlavon Mahmudlarning obrazi yaratilganini ko'rishimiz mumkin. Shoirning Beruniy haqidagi asarlari ham shoirning yuksak darajadagi asarlari qatoriga kiradi. Abu Rayxon Beruniy keyingi avlodlarga boy ilmiy va adabiy meros qoldirgan. Uni nafaqat sharq xalqlari, balki g'arb jamoatchiligi ham tan olgan. Shu boisdan buyuk olim haqida ilmiy asarlar bilan birga badiiy asarlar ham yaratilgan. Shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, shoir iste'dodli realist ijodkor sifatida o'z ideallarini ifoda etish maqsadida tarixda yashab o'tgan, xalqimiz uchun qadrli bo'lgan va butun dunyo tan olgan buyuk alloma shaxslarning obraziga murojaat qilgan. Aniq tarixiy dalillarni va tarixiy shaxslar haqidagi afsona va rivoyatlarni o'rgangan, asarlariga singdirib yuborgan. Ijodkor asarlarini kuzatar ekanmiz, buyuk va oddiy insonlarning qalb go'zalliklarini, zamon, umr, xalq, odamlar taqdiri va kelajagi bilan bog'liqligi, vatan oldidagi burchi kabi mavzular shoir ijodining asosiy mazmuni ekanligiga amin bo'lamiz. Omon Matjon adabiyotshunos N. Rahimjonov bilan suhbatda o'tmish siymolari haqida ushbu fikrlarni ilgari surgan: "...o'tmishdagi shaxslar hayotiga munosabatda uning hatti harakatlari, o'y-kechinmalari o'sha davr muhiti bilan bog'liq tarzda baholanmog'i zarur. Zero, agar o'tmishning ijtimoiy-ma'rifiy, ma'naviy-ahloqiy va hokazo ibratli jihatlari bo'lmasa, bunday tarixning hech kimga keragi yo'q." [5] Shoirning "O'n uchinchi eshik" she'ri ayniqsa xarakterlidir.

Ijodkor rivoyat, naql, afsona, ertaklar vositasida tarixiy shaxslarning yorqin obrazini yarata olgan. Unda shoir buyuk olimning naqadar zukko bashoratchi, mantiqiy fikrlovchi inson ekanligini ifodalamoqchi bo'ladi va buni uddasidan chiqadi:

Ana turar u-toza xilqat,
Ko'zlarida ko'kday tubsizlik.
Chehrasida porlar beshafqat,
Qat'iy sabot mujassam o'zlik.
"Sultonlarga bizdan ne darkor
Tinch qo'yarmi axir bu zolim?
Dil xushlashi uchun hukmdor,
Endi kerak bo'ptimi olim?!"[6]

Asar syujetiga kora Beruniy zolim shohdan shafqat kutmaydi, sabot-matonat bilan uning tahqirlashlariga chidaydi. Mahmud G'aznaviy uni o'ldirmaydi. Chunki uning harbiy yurishlarida Beruniydek ilmiy salohiyatga ega bo'lgan chuqur aql sohibi maslahatchi sifatida kerak edi. She'rdagi Beruniyning qalb iztiroblari G'azna shahriga nisbatan shoir aytgan so'zlarda yaqqol ko'rinadi:

G'azna uzra bo'y cho'zmishdi bot
Haybatli va qo'rqinchli saroy.
Bunday shiddat, bunday mahobat
Bag'dodda ham yo'qdir hoynahoy.
Ichkarisi vahm bir dunyo,
O'n ikkita eshigi bordir.
O'rtada taxt... "G'azabnok siymo...
Tegrasida o'n ikki qandil...

Shoir tasavvurida u o'zi ko'rmagan davr ichida ayni o'sha davr odami bo'lib yashaydi, buyuk olimga xoc alamlarini to'kib soladi. Jahon tan olgan buyuk siymo sha'ni haqida shoirimiz she'riyat tilida o'zining betakror, ta'sirchan so'zini ayta olgan. She'rdagi Mamud G'aznaviy Beruniyning bashoratchi ekanini eshitib, ishonmasdan uni masxara qiladi:

Emish, o'sha xorazmlik zot!
O'qir emish ko'zlardan ma'no!
O'qir emish xayolni ham bot,
Aytar emish yanglishmay aslo.
"Xo'sh!-deb yana turdi o'rnidan,
Neni xayol etmishimni ayt,
Eshiklarning qaysi biridan,
Hozir chiqib ketishimni ayt!"

Omon Matjonning bu kabi asarlari adabiy jarayonda o'z davrida yangilik bo'lgan asarlar hisoblanadi. Ijodkorning she'riyatida, dostonlarida, dramatik asarlarida ham epik ko'lam namoyon bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Aytmoqchi bo'lgan fikrlarining zalvorini, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni, mavzularni ko'tarib chiqqanligi bilan ahamiyati yuqori ekanligi ko'rinadi.

Omon Matjon bugungi kun dardlari haqida tarixiy shaxslar tilidan ham zamonlariga murojaat qiladi.

She'rdagi bir-biriga mutlaqo zid bo'lgan ikki siymoni qiyos qilib, biridan aql-zakovat, ikkinchisidan g'azab-qabohat yog'ib turishini badiiy ifodalaydi. Bu o'rinlarda urg'u bir

siymo- Beruniy qismati ustida borayotgani yo`q. Xalq manfaatini o`ylagan insonlarni, hattoki ular yaratgan ixtirolardan bahramand bo`lsa-da, hamisha ham munosib qadrlay bilmaganlar. Tarixdan bunga misollar juda ko`p va shoir shunday holatlarni bugun ham takrorlanmasligi uchun odamlarni o`zligini anglashga, hushyor tortishga chorlaydi.

Ma`lumki, adabiyotda doim tarixiy mavzuda yozilgan dramatik asar bo`ladimi, epik turga mansub asar bo`ladimi tarixiy asarlarning o`zak mohiyatida ijodkor yashab turgan davr muammolari, zamon illatlari qo`yiladi. Ya`ni zamonning muhim masalalari asosiy mavzu sifatida badiiy ifodalanadi. Demak, tarixiy shaxslar hayoti orqali, tarixiy shaxslarning ibratli ishlari orqali bugungi kun o`quvchisiga yaxshi bir ma`rifiy, o`rnak bo`ladigan voqealarni, fazilatlarni ko`rsatib berish asosiy o`rinda turadi.

Qani shuncha umid, shuncha armonlar,
Qani shuncha havas, fidoiy jonlar?
Shuncha mehnatlaring samari qani,
Taxt qani, toj qani, gavhari qani[7]

Shu orinda ta`kidlash lozimki, Omon Matjonning “Shayx Najmiddin Kubro” tragediyasining yaratilishi bugungi avlod uchun ayni muddaodir. Darhaqiqat, shoir asar uchun favqulodda, qiziqarli syujet tanlagan. Tarixiy haqiqatni badiiyat bilan mohirona bezagan. Omon Matjon mana shu dramani yozish uchun tasavvuf tariqatini ham, Najmiddin Kubroning kitoblarini ham, Xorazmshohlar tarixini ham yaxshi o`rganganligi ko`rinib turibdi. Aynan ikki obraz orqali vatanga muhabbat tasvirlangan. Birinchisi, shayx Najmiddin Kubroning vatanparvarligi bo`lsa, ikkinchisi Jaloliddin Manguberdining. Ijodkorning bu turkum asarlariga xoc bosh xususiyat shuki, ularda qalamga olingan tarixiy shaxslar, ulkan siymo yoki adabiy qahramon shunchaki ta`rif –tavsif etilmaydi. Ularning hayot yo`li, ibratli ishlari, jasorati shunchaki hikoya qilinmaydi, balki ular shaxsiga, hayotiga oid biror xususiyat, muhim detal bahonasida bugunning gapi aytiladi. Darhaqiqat, inson o`tmishini bilganligi uchun ham o`zligini saqlab qolmoqda. Sof badiiy voqelikka asoslangan mazkur tragediyada Najmiddin Kubro nutqi, monolog va dialoglari faylasufona mahorat bilan badiiy talqin qilingan va haqiqiy ma`noda tarbiyaviy-ma`rifiyligi bilan ahamiyatlidir: “....bu shahar, bu mamlakatdagi yuz minglab jonlar, barcha mening jigargo`shalarimdir! Vatandoshlarimning qoni bilan qonim, joni bilan jonim, ruhi bilan ruhim abadiy birdir, birgadir! Bu millat, bu el, bu tuproqdan uzilib qayga boraman men?!”[8]

Tragediyaning nihoyasida Najmiddin Kubro o`z ona tuprog`ini dushmandan himoya qilish uchun muridlari bilan birgalikda bosqinchilarga qarshi kurashayotganini tasvirlar ekan, dushman bayrog`ini sindirib tashlab, qo`lida mahkam tutganicha jon taslim etadi. Ko`rinadiki, asarda Najmiddin Kubro tomonidan aytilgan iltijo, avliyoning ilohiy qudrati va kuchi bilan ishlatgan tilsimi tragediyaning eng muvaffaqiyatli o`rinlaridir. Qahramonning jon holatda ona Vatan haqqi-hurmati uchun iltijo etishidan so`ng, osmonda kuchli g`uldirash, momaqaldirloqlar chaqiladi va Gurganj oldida kumushrang parda paydo bo`lib, shahar darvozasi bosqinchilar uchun ko`rinmay qolib, g`oyib bo`ladi.

Adabiyotshunos olim J. Jumaboyeva o`zining “El bilsa bo`ldi” kitobida Omon Matjon uslubi haqida yozar ekan, ijodkorning xiyonat va sotqinlikka nisbatan o`ta murosasiz ekanligiga diqqat qaratgan[9]. “Najmiddin Kubro” tragediyasida jiddiy tanqid etilgan ma`naviy, ijtimoiy muammolardan biri xiyonatkorlik va sotqinlikdir. Shu jihatdan olib qaraydigan bo`lsak, asardagi ijtimoiy illat, Omon Matjonning oldingi yillarda yozilgan “Beruniy”, “Xorazmiyning to`rt sayohati va sakkiz bashorati”, “Pahlavon Mahmud”,

“To‘g‘on” kabi dramatik dostonlarida ham tanqid ostiga olingan. Shoir insonlar aro munosabatlardagi xiyonatkorlik, sotqinlik, ko‘raolmaslik singari ijtimoiy salbiy illatlarni qizil ip misoli ko‘pgina asarlarida davomiy o‘rganadi, ayovsiz fosh etadi. Ijodkorning o‘tmish voqealari asosida ilgari surgan falsafasi millat avlodlarini buyuk ajdodlarga xos tarzda tarbiyalash va ma‘naviyatli jamiyat qurishga xizmat qiladi. Mana shunday faol xalqparvarlik ohanglari shoir ijodining jon tomirini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qo‘chqorova M. O‘zim o‘z qalbimning bo‘lsam Kolumbi. // “Sharq yulduzi”, 2013 yil, 1-son.
2. Омон Матжон. Эл бирла бўл. Тошкент. “Шарқ” НМАК, 2019.
3. Омон Матжон. Yonayotgan daraxt. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti .Toshkent. 1977 y. 130-bet
4. Омон Матжон. Iymon yog‘dusi. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti .Toshkent. 1995 y. 15-bet
5. Раҳимжонов Н. Бадиият бош мезон. Тошкент, “Академнашр”. 2016.137-бет.
6. Омон Матжон. Иймон ёғдуси. Шеърлар, дostonлар. –Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1995.
7. Омон Матжон. Iymon yog‘dusi. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti .Toshkent. 1995 y. 71-bet
8. Омон Матжон. Дийдор азиз. Тошкент: Ношир нашриёти. 2011.
9. Jumaboyeva J. El bilsa bo‘ldi. Toshkent, “Istiqlol” nashriyoti, 2018.